

INSONIYATNI QAMRAB OLGAN INTERNET TARMOQLARINING YOSHLAR ONGIGA SALBIY TA'SIRI

Amonova Munisa Shavkat qizi
Termiz Davlat Pedagogika Instituti
Musiqa ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: M. Xo'jageldiyeva

Annotatsiya: Ushbu maqola kundalik hayotimizda eng muhim ehtiyojimizga aylangan internet tarmoqlari, ulardan to'g'ri foydalanish va yosh avlodlarimizning ruhiyatiga salbiy va ijobiy ta'siri haqida.

Kalit so'zlar: internet, telegram, you tube, instagram, salbiy, ijobiy, Internetparastlik, Kimberli Yang, elektron pochta, web sahifa, yosh avlod, ijtimoiy fikr.

KIRISH

Internet nima? XXI asr-axborot texnologiyalar taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i – internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, Internet – axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirish xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai-zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasalarning masofaviy talabasi bo'lish, hatto elektron hizmatlarni shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, Internetning ijobiy jihatlari bisyor, ammo, shu bilan birgalikda salbiy oqibatlar ham yetarkicha.

Internet lotincha so'zdan olingan bo'lib, inter-aro va net-tarmoq ya'ni standart minimal internet protokoli (I) orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchub ochiq to'plamdir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetda ma'lumotlarning tarqalishi uchun xizmat qiladi. Internet elektron pochta, chat hamda o'zaro bog'langan sahifalar va boshqa Butunjahon o'rgimchak to'ri servislaridan tashkil topadi. Internet-katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lab turuvchi butunjahon ommaviy axborot tizimidir. Unda geografik o'rni, makon va zamondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil qiladi.

Internet tizimi XX asr 60 – yillarida paydo bo'ldi. O'sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to'g'ri keldi.

Ijtimoiy tarmoqlar: Ijtimoiy tarmoq-bu qiziqishlar o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

Telegramm-tezkor xabar almashish vositasi. Oddiy foydalanuvchilar matnli xabarlarlashuvdan tashqari bir birlariga har birining hajmi 2GB gacha bo'lgan tasvir, video, audio va har xil fayllar yuborishlari hamda ovoz va video qo'ng'iroqlarni amalga oshirishlari, kanal va guruhlarda ovozli hamda chatlarda qatnashishlari mumkin.

Instagramm-Kevin Systrom va Mike Krieger tomonidan yaratilgan hamda rasm va videolarni ulashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq. Shuningdek, boshqa ijtimoiy tarmoq platformlari orqali ularni yuklash imkonini beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar rasmlar va videolar uchun raqamli filtrlar qo'llash imkoniga egadir. Instagramda videolar uchun maksimal davomiylilik 60 soniyadir.

You Tube LLC – videomateriallar hostingini taqdim etuvchi vebsayt. You Tubedan foydalanish qulay va osonligi tufayli juda ham mashhur va kirib ko'ruvchilar soni ko'pligi bilan jahonda 3-o'rinda turadigan saytdir. Saytda video koruvchilar soni kuniga 2 mlrddan ortiq hisoblanadi. Internetni biz do'konga o'xshatishimiz mumkin. U yerda hamma narsani topa olamiz. U yerdan har bir inson o'ziga kerakli narsalarni oladi. Agar biz ham internetda kerakli narsalarni olishni o'rgana olsak, bizning yuksak ma'naviyatli yoshlarimiz ongiga hech qanday xurujlar ta'sir eta olmaydi “ **A. Karimov** „, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asaridan

O'zbekiston rasmiy matbuoti xabarlariga ko'ra, O'zbekiston jinoyat kodeksining 130-moddasiga kiritilgan o'zgarishlar munosabati bilan 1-iyuldan boshlab ijtimoiy tarmoqlarda buzuq va axloqsiz ma'lumotlarni qo'yish taqiqlanadi. Javobgarlarni topish va jazolash ishlariga esa Milliy Xavfsizlik Xizmatining maxsus guruh jalb qilinishi mumkin. Ko'pchilik internetdan yangiliklar o'qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadi. Ammo internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas. 60-yillar oxiri 70-yillar boshlarida internet tarmog'i uncha keng rivojlanmadi. Dastlabki o'n yillik xalqaro tarmoq asosan, harbiylar va yirik olimlarning shaxsiy elektron liniyalari faoliyati doirasi bilan cheklandi. Internetning beqiyos rivojlanish sur'ati davlat, ta'lim, akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o'ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga bog'liq bo'ldi. 80 – yillarda internet o'ziga xos tarzda universal ko'lamlargacha rivojlana boshladi. O'sha davrda internet vositasida uzatiladigan informatsiyaning o'sishi “oyiga 20 %dan ko'payib borish “ shiori ostida o'sdi. 90 – yillarda internet tizimini boshqarish borasida tub o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbekistondagi yagona omma fikrini o'rganish markazi-“ijtimoiy fikr” o'tkazgan so'rov natijalariga ko'ra, mamlakat yoshlarining faqat yarmi internetdan

foydalanadi. O'zbekiston internet hukumat tomonidan qat'iy nazorat qilinadi, hukumat o'zi xaqida tanqidiy materiallar chop qiluvchi mustaqil hamda muxolifat saytlariga to'siq qo'ygan.

Internet va undan foydalanish madaniyati. 2014 – yil O'zbekiston aloqa qo'mitasi internet kafelarining faoliyati ustida nazoratni kuchaytirish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. So'z internetdan to'g'ri foydalanish borasida borar ekan, unda madaniyatni bilib qo'yish hech qachon zarar qilmaydi. Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga o'sib bormoqda. Ushbu tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnli, tasviriy va ovozbizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhalarda katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsada, ammo ikkinchi tomkndan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb etib bormoqda. Ayniqsa bu ta'sir doirasida o'smir yoshlar ham yo'q emas. Bu borada mutaxassislar quyidagi natijalarni isbotlamoqda:

Internet tarmog'ida ijobiylik fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekn qiziquvchanlik sababli internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Ma'lumki, internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqib, qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni internet tarmog'ida axborotni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinnidir. 2014-yilgi statistikaga ko'ra, O'zbekistonda ham aholining 40% idan ortig'i internetdan foydalanadi va bu raqamlar yildan yilga ortib bormoqda. 2023 – yil hisobiga kora bu korsatkishlar 80% ga ortdi desak ajab noto'g'ri bo'lmaydi.

Internetning salbiy ta'siri: Yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida) G'arbona yashash tarziga xos, lekin o'zbek mintalitetiga zid g'oyalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, tatuirovkalar, alkagol maxsulotlarini istemol qilish va hokazo) ;

Pornografik axborotlarning yoshlar ongiga ta'siri ;

Tejshirilmagan axborotlar(bo'xtonlar) ;

Internetparastlik (internet-addiksiya) global tarmoqqa ulanishga haddan ziyod oshiqish va undan chiqib keta olmaslik. Ma'lumotga ko'ra bugungi kunda internetdan jami foydalanuvchilarning 10% i – inernetparast.

Kimberli Yang “internetparastlike mavzusiga ilmiy nuqtai nazardan yondashgan birinchi olimlardan biri hisoblanadi. U 1994-yili internetparastlikni aniqlovchi test ishlab chiqadi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, quyidagilarni xavfli ogohlantirish sifatida qayd etadi:

- elekteon pochmani tinimsiz tekshirishga urinish;
- navbatdagi “onlayn”muloqotga oshiqish ;

- o'tkazilgan "onlayn" muloqotdan huzurlanish;
- onlayn uchun sarflanadigan xarajatlarning ortib borishi;

Kimberli Yang internetparastlikning 5ta asosiy shakllarini ajratib ko'rsatgan :

1. behayo saytlardan o'zini tiya olmaslik;
2. virtual do'stlarga intilish-doimiy ravishda yangi tanishlar qidirish, tarmoqqa virtual do'stlarning sonini haddan ortib ketishi;
3. turli internet forumlarda vaqt o'tkazish, muhokamalaridan chiqib keta olmaslik
4. web-syorfing. Tarmoq bo'ylab to'xtovsiz sayohat;
5. onlayn kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketish;

Internetning ijobiy ta'siri:

Dunyo qarashning kengayishi. Obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunday hollarda foydalanuvchining to'liq axborotga ega bo'lishi va ularni saralay olish qobiliyati muxim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo'lgan did bo'lmasa, u axborot oqimida cho'kib ketishi mumkin, ya'ni ta'siriga berilib ketishi) ;

- ✓ Masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati
- ✓ Axborotlarni tanlash imkoniyatlari borligi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika qo'shma shtatlarida "Axborot quroli"ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137mln.dollar sarf qilinadi.

Internetning Yoshlarning sog'ligiga zarari. Yosh kattalar eng tez tez internetdan foydalanuvchilar bo'lib, toplangan dalillar, ularning internetdagi xatti-harakatlari ularning aqliy salomatligiga tasir qilishi mumkin, chunki veb-kontentning muayyan tarkibi xavotrga solishi mumkin. Bundan tashqari kontentdan qat'iy nazar, ortiqcha foydalanish, salbiy operatsiyalarni baparvo qilish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Internet tarmog'ida o'tkazilgan vaqt, ham turli faoliyatkar uchun sarflangan vaqt aqliy salomatlikni, mos ravishda 1.4% va 2.8% disperatsiyani tushirip beradi. Biroq, ushbu faoliyat bilan shug'ullanishning oqibatlari 11.1% farqni tushuntirib berib muhimroq bashorat qiluvchilar edi. Faqat veb ga asoslangan o'yin, qimor o'yinlari va maqsadli qidiruvlar ruhiy salomatlikka salbiy tasir ko'rsatadi. Internetdan foydalanish sababli uyquning yo'qolishi va internetga kirish imkoni bo'lmagan hollarda (salbiy kayfiyat) uzoq vaqt davomida ruhiy salomatlik bevosita ta'sir korsatadigan yagona oqibatlar edi. Internetdan foydalanishning ijobiy oqibatlari ruhiy salomatlik bilan umuman bog'liq emas. Internetdan foydalanishning kattaligi umuman olganda aqliy salomatlik bilan bog'liq, ammo veb – ga asoslangan faoliyatlar qanchalik izchil, qanaqangi va qanday yo'nalishda ularning aqliy salomatligiga salbiy ta'siri korsatadi. Internetdan foydalanish oqibatlari aql salomatligi natijalariini ma'lum

faoliyatlarning o'zidan ko'ra ko'proq bolishini taxmin qiladi. Internetdan foydalanishning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tashabbuslar internetdan foydalanish o'rniga salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Internet orqali berilayotgan axborotlarni olish va berish imkoniyatiga ega ekanmiz undan foydalanish madaniyatini o'rganishimiz, xaddan ziyod unga bog'lanib qolmaslik, virtual olam deb tevarak atrofimizdagi jonli tabiat, do'stlar diydorini unutib qoymasligimiz va eng avvalo internet olamini deb salomatligimizni yoqotmasligimiz darkor. Internet albatta kerak, ammo undan foydalanishni tartibda solib olish o'ta muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. S. G'ulomov va boshqalar G'ulomovning umumiy tahriri ostida "Iqtisodiy informatika" -T:"sharq "1999 yil.
2. Karimov. I. A. Islohotlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'laylik. "O'zbekiston ", 1996.
3. Aripov.M.M, Muhammadiyev. J. U. "INFORMATIKA VA INFORMATSION TAXNALOGIYALAR"O'quv qo'llanma. Toshkent shahri, 2005 yil..
4. Острейковский.В.А. Информатика. Учебник для ВУЗ-ов-М. "Высшая школа"
5. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology.
6. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. Analytical Journal of Education and Development, 1(06).
7. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 67-71.
8. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. Экономика и социум, (4-2 (95)), 211-214.
9. Xo'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rnini. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education.
10. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
11. Pardayevna, N. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
12. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.

13. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
14. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА " ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
15. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
16. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
17. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА " ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923
18. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(4).
19. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 127-130.
20. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 329-331.
21. ED Uktamovna. (2023). FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 58-62
22. HN Pardayevna. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 63-66.
23. CS Nasriddin o'g'li (2023). CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 18 (8), 72-77
24. Ходжагельдыева Махфуза Эргаш кызы 2022/11/15 ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА ДУТАР И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ Новости образования: исследование в XXI веке 1-том 4-номер 486-490
25. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi 2022/6/30 THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 563-566
26. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi 2022/4/27 Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes European Journal of Innovation in Nonformal Education 13-15